

Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi antropogidronimlarining ba‘zi semantik xususiyatlari

Kamolov Azizbek –

Ajinoz nomidagi NDPI 1-bosqich doktoranti

E-mail: kamolovazizbek0707@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi antropogidronimlarning ba‘zi semantik xususiyatlari ochib berilgan. Mazkur hududdagi suv obyektlari va ularning nomlanish xususiyatlari tasniflangan.

Kalit so‘zlar: antropogidronim, daryo, arna, ko‘l, yap, toponim, quduq, kanal.

Ma‘lumki, antropogidronim (yunoncha: antropos – antropos + hydro-suv onoma – atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli otlarning boshqa tilshunoslik bo‘limlari bilan bog‘liq tiplaridan biri[1.13]. Ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan daryo, kanal, suv havzalari, ariqlar kabi suv inshootlarining kishi atoqli otlari bilan bog‘liq paydo bo‘lgan nomlar majmui, fondi antropogidronimiya deb yuritiladi. Antropogidronimika esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini yanada rivojini ta‘minlovchi tilshunoslik bo‘limlaridan biridir.

O‘zbek antropogidronimlarini ilmiy asosda to‘plash va o‘rganish ishlari XIX asr oxiri-XX asr boshlarida boshlangan edi. Dastlab Ye.T.Smirnov (1899), keyinchalik N.S.Likoshin (1916) va boshqa rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limining a‘zolari (V.F.Oshanin, A.Samoylovich kabilar) antropogidronimlarni to‘plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bilan shug‘ullanganlar. N.Ostroumov (1910), A.Samoylovich (1911), S.Oldenburg (1928), V.Ya.Nalivkin, M.Nalivkina (1897) kabilarning ishlarida ayrim masalalar o‘rganilgan edi. N.S.Maliskiy esa Toshkent shahridagi mahalliy aholi ismlari, urf-odati masalalari bilan shug‘ullangan (1928).Antropogidronimning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish 1960 yillardan boshlangan. Xuddi shu davrda D.Abdurahmonov (1960), O‘.Nosirov (1965), F.Abdullayev (1960, 1961),

M.Shamsiyeva (1962), A.Ishayev (1961), X.Doniyorov (1960) kabi olimlarning o‘zbek antropogidronimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e‘lon qilingan edi.

O‘zbek antropogidronimikasining asoschisi, hech shubhasiz, E.A.Begmatov sanaladi. U 1962-1965 yillar davomida o‘zbek antropogidronimiyasi bo‘yicha juda boy material to‘pladi va antropogidronimlarning lingvistik, ekstralingvistik xususiyatlari, ismlar, laqablar, taxalluslar, familiyalar, ota ismlarning leksikasi, strukturasi, grammatik xususiyatlari bo‘yicha qator salmoqli maqolalar e‘lon qildi. Shu asosda bu olim 1965 yilda “O‘zbek tili antroponimikasi” degan mavzuda nomzodlik ishini himoya qilgan edi[2.26]. O‘zbek dialektal antropogidronimiyasini o‘rganish bo‘yicha o‘zbek nomshunosligida dastlabki qadamlar tashlandi. Bu o‘rinda H.Doniyorov (1960, 1975, 1979)ning ishlarini alohida ta’kidlash lozim. Shu bilan birga O.Madrahimov, F.Abdullayev, Z.Do‘simovlar Xorazm shevalari, A.Ishayev, Y.Ibrogimov kabi olimlar Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari antroponimiyasini tadqiq etishga oid qator ishlarni amalga oshirganlar. Antropogidronimlar bo‘yicha respublikamizda yirik mutaxassis sanalgan E.Begmatovning ishlarida antropogidronimlar o‘zbek tilining lug‘aviy boyligi hisoblangani uchun bu tilning tuzilishi, yasaliş qonuniyatlariga bo‘ysunishi alohida qayd etib o‘tiladi. Olimning uqtirishicha, antropogidronimlarning tuzilish qoliplari, bir tomondan, antropogidronim uchun asos bo‘lgan appelyativning xususiyatiga, ikkinchi tomondan, antroponimlarning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanadi.

E.Begmatov o‘zbek tilidagi antropogidronimlarni lisoniy tuzilishiga ko‘ra ikki guruhga ajratib o‘rganishni tavsiya qiladi:

1. Affiksatsiya usulida yasalgan antropogidronimlar.
2. Sintaktik usulida yasalgan antropogidronimlar.

Janubiy Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimlari orasida antropogidronimlar alohida o‘rin tutadi. Ularning nomlanishida turli xil omillar sabab bo‘lgan. Shu sababdan gidronimlar qanday so‘zlar asosida yaratilganligini

aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida antropogidronimlarning nomlanishiga sabab bo'lgan omillarni ko'rib chiqamiz:

Asosan bunday suv obyektlarining (ariq, quduq, buloq, kanal va boshq.) paydo bo'lishida (qazilishida) rahbarlik qilgan shaxslar nomi bilan atalgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi janubiy tumanlaridan Amudaryo tumanida: Otajonboy (ko'l), Eshonyap (ariq), Seityap (ariq), Sho'rsapa (ko'l), Tajig'aliko'l (ko'llar), Eshonyap (ariq), Insegen (ariq), Alili (ariq), Qilichniyozboy (kanal), Uyshunyap (kanal), Xo'jako'l (kanal), Nazarxonarna (kanal).

Beruniy tumanida: Sultono'zak (irmoq), Sauxumyargan (kanal), Jag'alboyliyp (kanal), Chapayyp (ariq), Qozoqyap (ariq), Ayoqko'l (ko'l).

Ellikqal'a tumanida: Oyselya (ko'l), Narimjonbuva-1 (tarmoqlovchi kanali NT-1) Amirobodyap (kanal) singari antropogidronimlar qo'llangani kuzatildi.

Affiksatsiya usulida yasalgan antropogidronimlar: turdosh otlarda bo'lgani singari atoqli otlarda ham affiksatsiya usulida antropogidronimlar yasalishi hodisasi mavjudligi lingvistik adabiyotlarda qayd etib o'tiladi. Bu usulda antropogidronimlar yasalishida quyidagi qo'shimchalar faol ishtirok etishi ko'rsatilgan: -chi, -li/-lik, -cha, -mon/-man, gan/-kan, -an, -ar-g'an, -ak, -q/iq, -lan, -mish, -don, -a, -ya,/-iya, boy (kichraytirish va erkalash shakli) kabilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi janubiy tumanlaridan Amudaryo tumanida Otajonboy (ko'l), Alili (ariq), Qilichniyozboy (kanal), Beruniy tumanida: Sauxumyargan (kanal) shular jumlasidandir.

Antropogidronimlarning sintaktik usulda yasalishi: bu usul antropogidronimlar yasashda eng sarmahsul usul sanaladi. Eshonyap (ariq), Seityap (ariq), Sho'rsapa (ko'l), Tajig'aliko'l (ko'llar), Uyshunyap (kanal), Xo'jako'l (kanal), Nazarxonarna (kanal).

Beruniy tumanida: Sultono'zak (irmoq), Jag'alboyliyp (kanal), Chapayyp (ariq), Qozoqyap (ariq), Ayoqko'l (ko'l).

Xulosa qilib aytganda, har qanday antropogidronimlar ma'lum bir davrda suv inshootlariga egalik qilgan yoki ularning qurilishlariga boshchilik qilishda va uning tashkiliy ishlarida jonbozlik qilgan xalq qahramonlarining ismlariga atab qo'yiladi. Ushbu xizmat ko'rsatgan insonlar nafaqat o'sha davr aholisi balki, kelajak avloq qalblarida mangu qoladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. –С. 13.
2. Бегматов Э.А. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Ташкент,1965. – 28 с.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: O'zME, 2013. – С. 217.
4. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 252-254.
5. Sanober, S., Aldawsari, M., Karimovna, A. D., & Ofori, I. (2022). Blockchain Integrated with Principal Component Analysis: A Solution to Smart Security against Cyber-Attacks. *Security and Communication Networks*, 2022.
6. Akramova, L. Y., Mirzaeva, S. R. K., & Botirovna, D. (2020). The role of interactive teaching methods in the development of mental activity and the assimilation of students' knowledge at a university. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(09).